

# **SHAXS KOMOLOTINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TA'LIMINING IMKONIYATLARI**

**Elnoza Abdukarimova,**

JDPI o'qituvchisi

Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalardagi kabi bo'lajak o'qituvchilarning zimmasiga ham katta vazifalar yuklaydi. Hozirgi kunda, musiqa madaniyati fani birdaniga shakllangan fan emas, balki murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan fan sifatida e'tirof etilmoqda. Bu ta'lim mazmunida har bir xududning san'ati va musiqa madaniyati, urf-odatlarini marosimlari, badiiy an'analarida o'z ifodasini topgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hayotni va atrofdagi guzallikni bilmay turib to'laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo'lmaydi.

Musiqa san'ati estetik did, xissiyot, idrokning bitmas tuganmas manbaidir. Inson yuragini va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyosidir. Inson doimo go'zallikga intilishi va kundalik hayotida shu go'zallik qoidalariga amal qilish kerak.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda estetik tarbiyaga alohida e'tibor berilishi juda katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Ushbu masalani yechishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir va estetik tarbiyaning eng asosiy omilidir.

Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o'rgatadi. Shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go'zallik qonun-qoidalariga asosida o'zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalashga yo'naltiradi.

Estetik rivojlantirish – bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Estetik tarbiya shaxsning jamiyatda estetik madaniyatini egallab olishiga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanishi tarixi jarayonida to'plangan moddiy ma'naviy qadriyatlari majmui tushuniladi. O'quvchi

shaxsini estetik madaniyati uning jamiyat merosini faol, ijodiy o'zlashtirishida xosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu estetik ong, idrok, hissiyot, ehtiyojlar, munosabatlar va estetik faoliyatlardir. Estetik ong, estetik idrok, bilim, mulohaza, baxs, estetik idealni qamrab oladi. Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, badiiy didi, estetik xissiyotlarida ifodalanadi.

Estetik ong – ijtimoiy voqelik, tabiat san'at bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi. Estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi.

Estetik idrok – bu atrof voqelikdagi buyumlar, xodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirishdir, ya'ni idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo'lgan xissiy va aqliy narsalarga qiyoslash jarayonidir. Estetik idrok go'zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Estetik mulohaza – shaxsning aniq bir estetik xodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi. Shaxsning estetik mulohazasi chuqurligi, takomillashganligi, murkkabligi, yuqori va pastligi bilan ajralib turadi. Estetik mulohaza darajasi shaxsning hulq-atvori va bilim saviyasiga, estetik tajribasiga bog'liqdir.

Estetik ideal – bu shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishidir.

Estetik ehtiyoj – shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omillariga aytiladi. Estetik ehtiyojlar estetik ahborotga qiziqishni kuchaytiradi. Estetik qiziqish shaxsni estetik faoliyatiga voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishida ifodalanadi. Estetik qiziqishning asosiy belgisi o'quvchida estetik faoliyatga intilishi, o'ziga yoqtirgan san'at asarlarini yig'ib to'plab borishi, takror-takror o'qib idrok etishi, o'sha asarlar haqida fikr bildirishga intilishi, boshqalarning shu masalaga doir fikrini bilishga qiziqishi, muayyan san'atkor, janr, yo'nalishi kabilarni afzal ko'rinishida

nomoyon bo'luvchi tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Masalan: o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan san'at ustasining rasmlarini, asarlarini to'playdilar, qayta-qayta o'qib chiqadi va yaratgan badiiy asarlarini eshitadilar.

Estetik did - shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida xosil bo'ladigan murakkab hodisadir. Estetik did estetik axborotlar oqimi, estetik va ahloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadi va shaxsning buyum, xodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Estetik tuyg'u – bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini boshdan kechirishdir. Estetik tuyg'u o'quvchining mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunini mushohada qilib xursand bo'lishida yoki aksincha nafratlanishida ifodalanadi.

Musiqqa ta'lim jarayonida o'quvchilarda musiqqa san'atiga nisbatan qiziqish va havasning ortib borishi, musiqqa mashg'ulotlari asosida ularda: hissiyot, idrok tarbiyasini o'sib borishi, qo'shiqlarining xushohang kuylash, musiqasini ishtiyoq bilan tinglash, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, ya'ni go'zalikni sezish, uni baholash malakalari shakllana borishi alohida ahamiyatlidir. Shu ta'kidlash joizki, musiqiy ta'limning asosiy maqsadi o'quvchi yoshlarimizni nafosat didlarini badiiy asarlar orqali shakllantirishdir.

Nafosat tarbiyasi – eng avvalo har bir kishida badiiy xissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql zakovatdan xoli bo'ladi, degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida ikki tomon bir-birini to'ldiradi.

Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy aqliy mazmuni bilan idrok qilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, ya'nada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan o'zviy bog'liqdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his - tuyg'ular o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, oliyjanob bo'lib boradi, uning hayoti ya'nada sermazmun bo'ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbat ortib boradi. Bularning hammasi har bir

insonda go‘zallikni xuniklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni ya’nada rivojlantiradi.

Inson go‘zal bo‘lishga, go‘zal ko‘rinishga harakat qiladi – bu qonuniy hol. Ammo uni amalga oshirish axloqiy fazilatga, ya’ni insonning go‘zalligi uning ijodiy, yaratuvchilik faoliyati mazmuniga bog‘liqdir. Agar inson o‘zi sevgan faoliyat bilan band bo‘lar ekan, unda ichki ko‘tarinkilik, oliyjanoblik va ilhombaxsh tuyg‘u paydo bo‘ladi.

Inson mehnati bilan yaratilgan barcha narsalar faqat moddiy jihatdan foydali bo‘libgina qolmasdan, balki zavq-shavq uyg‘otish manbai hamdir, chunki ular kishining bahri dilini ochadi, unga ma’naviy ozuqa beradi.

Inson mehnat jarayonida boshqa insonlari bilan muomila qiladi, ularga yaqinlashadi. Natijada aqliy, axloqiy va hissiyot komolotga erisha boshlaydi. Kishilar bilan muomila qilish jarayonida o‘z-o‘zini takomillashtiradi. Insoniy muomila madaniyati kishini donolik va zavq-shavq bilan boyitadigan mo‘jizaviy kuch qudratga egadir. Zero, kishilar bilan uchrashishdan, ulardagi ma’naviy boylikni bilishdan, inson o‘zi uchun bitmas-tuganmas ozuqa oladi. Xuddi shu insoniy muomila madaniyatida shaxsning hayotni sevishi shakllanadi va yangi inson kamol topadigan ma’naviy muhit mustahkamlanadi. Insoniy muomilaning ichki ahamiyati shundan iboratki, bu jarayonda inson boshqalarning ichki dunyosini tushunadi va his etadi. Bu bilan u tor biqlik va xudbinlikdan xolis bo‘ladi, xushmomilalik gashtidan zavqqa to‘lib, o‘z hayotini ma’naviy boyitadi.

Xullas, estetik did, idrok, estetik qobiliyat, hissiyot madaniyati birdaniga paydo bo‘lmaydi, tabiatdan tayyor holda berilmaydi. Har qanday insoniy qobiliyat qatorida go‘zallik tuyg‘usini ham tarbiyalash, rivojlantirish, takomillashtirishga muhtojdir. Bularning hammasida inson go‘zalligi nomoyon bo‘ladi. Xalqimiz “yaxshi husningni yomon xulqing buzadi” deb bekorga aytmagan.

“Musiqqa madaniyati” darslarida nafosat tarbiyasi, texnika vositalaridan foydalanishi, did bilan chizilgan rasmlar, estetik badiiy asarlar va sahna o‘yinlari orqali o‘quvchi ongiga singdirib boriladi. Shuningdek turli janrdagi badiiy asarlarni o‘rganish, so‘zlarni yodlash, jumladan, ertak, rivoyat, hikoyalarni

o'rganish orqali bola so'z qudratidan zavqlanadi, hayajonlanadi, ta'sirlanadi. O'zini sirli voqealar ichida yurgandek his etadi, butun vujudi quloqqa aylanadi, turli kechinma, kayfiyat, his-tuyg'u qalbini qamrab oladi. So'z qudrati uni sehrlab, butunlay o'ziga jalb etadi, ergashtiradi. Musiqa ohangi yordamida idroki oshadi.

Nafosat tarbiyasi vositalaridan eng muhimi san'atdir. San'atning barcha tur va janrlari o'ziga xos ta'sir kuchiga ega. Yoshi o'sib borgan sayin, bolada san'atning u yoki bu turiga qiziqish almashib boradi. O'quvchilarni havaskorlik to'garaklariga jalb etish, intermediyalar ijro etish, sahnada rol bajarish, turli milliy o'yinlar o'ynash bular qalblarni go'zallikka oshno etuvchi vositalar bo'lib xizmat qiladi.

Bola voqelikdagi, san'atdagi, insondagi go'zallikni ko'ra olishiga, his qila bilishga, musiqa asarlarini eshita olishga, go'zallik va xunuklik haqida erkin fikrlay olishga, o'z fikrini aniq so'zlashga qobil bo'lsa, demak, unda go'zal did, hissiyot, go'zal tuyg'u, estetik idrok kamol topgan bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008 yil.
2. Umumiy o'rta ta'limning musiqa fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, Ta'lim taraqqiyoti. 1997 yil.
3. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash (monografiya)-T.: Fan, 2009- y,164-b.
4. O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Y.Rajabiy, 1-Tom. – T.:Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1955- y.567-b.
5. Qudratov I, Abdukarimova E. “Musiqa darslarida fanlararo aloqadorlik” Samarqand, SamDu bosmaxonasi, 2015-yil.
6. E.Abdukarimova. “Preparation of future music teachers for their professional activities through uzbek classicall music” European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 6, 2019 ISSN 2056-5852

7. E.Abdukarimova. Ilm ham jamiet Ajiniyaz atindagi Nokis mamleketlik pedagogikaliq instituti "Texnologik loyihalash - musiqa mashg'ulotlarida samarali ta'lim". 2019 (№1) ISSN 2010-720X